



CHET TILLARINI O'RGANISHDA MOTIVATSIYANING O'RNI

Komilova Ominakhan Abdultif kizi

O'zbekiston davlat Jahon tillar universiteti Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi Ingliz tili №3 fakulteti 1- bosqich talabasi Email: komilovaominaxon64@gmail.com

Axmedova Shohida Akramjonovna

Ilmiy maslahatchi:

Annotatsiya: Chet tilini o'rganish bugungi globallashtirilgan dunyoda zaruriy ko'nikmaga aylanmoqda. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya hal qiluvchi omil hisoblanadi. Motivatsiya — bu insonni maqsad sari harakat qilishga undaydigan ichki kuch bo'lib, til o'rganish jarayonida uni davom ettirish, qiyinchiliklarni yengib o'tish va sabrli bo'lishga yordam beradi. Motivatsiya yo'q bo'lsa, til o'rganish jarayoni zerikarli va sust kechishi mumkin. Aksincha, kuchli motivatsiyaga ega o'quvchi muntazam mashq qiladi, xatolardan cho'chimaydi va o'z ustida doimiy ishlaydi.

Kalit so'zlar:Maqsad sari harakat qilish, qiyinchiliklarni yengish, til ko'nikmalari, o'z ustida ishlash, muvaffaqiyat,o'rganishga bo'lgan qiziqish, rag'bat.

Annotation: Learning a foreign language is becoming a necessary quality in today's globalised world. In this case, motivation is a decisive factor in success. Motivation is an internal force that encourages a person to act towards a goal, and helps to continue it in the process of learning, overcoming difficulties and being patient. Without motivation, the language learning process can be dull and slow. On the contrary, the student with strong motivation is regular, is not afraid of mistakes, and constantly runs on himself.

Key words: Movement towards the goal, overcoming difficulties, linguistic, work, work on yourself, interest in learning, incentive

Bugungi kunda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga ta'lim sohasini motivatsiya bilan bog'lash keng ko'lamda targ'ib qilinmoqda. Motivatsiya ta'limni rivojlantirib, uni keng targ'ib etadigan yo'llardan biri hisoblanadi,sababi yoshlarni ilm olishga bo'lgan qiziqishlari shu yo'l bilan yuksalib boradi. O'quvchilarning ta'lim sifatini va ta'limga bo'lgan ishtiyoqini oshirish uchun faqat motivatsiyaning o'zigina kifoya qilmas ekan. Bu jarayonga o'quvchilarning asosiy ehtiyojlari qondirilishi kerakligi alohida ta'kidlangan. Haqiqatdan ham, avval ehtiyojlar to'liq qondirilmasa yoki e'tiborsiz qoldirilsa , motivatsiyaning ta'sir kuchi pasayadi.

O'quvchilarning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishni bevosita motivatsiya bilan bog'lashimiz mumkin. Xorijiy tillarni o'rganish davomida yangi madaniyat, bilim va yangi do'stlar bilan tanishish , muloqot ravonligi va dunyoqarashni o'stirish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Ammo, xorijiy tillarni o'rganish siz o'ylaganingizdek oson jarayon emas. Hamma ham bu jarayonni yengib o'ta olmaydi.



Til o'rganishda avvalo insonning xohishi bo'lishi kerak va ilk qadamni hech qanday qo'rquvlersiz tashlay olishi kerak. Afsuski, ko'pgina o'quvchilar xorijiy tillarni majburligidan o'rganadi yoki o'rganishni boshlash uchun birinchi qadamni tashlashga qo'rqadi. Haqiqatdan ham, til o'rganuvchida qo'rquv bo'lishi bu tabiiy holat, ammo bu insonning tarbiyasi va xarakteri bilan bog'liq jihat hisoblanadi. Ayrim bolalar yoshligidanoq bir tilni mukammal o'rganib olgan bo'ladi, ba'zi bolalar esa uzoq muddatgacha til o'rganish bilan bog'liq muammolarga duch keladi va hattoki bu muammo yoshi katta insonlarda ham kuzatiladi. Bu holat oila, do'stlar va yaqinlar davrasidagi muhit ta'siridan kelib chiqqan bo'ladi. Misol uchun: Oila davrasida o'tirganda bolalarga

“jim o'tir”, “kattalar gapirganida gapga aralashma” degan gaplaridan ham bilsak bo'ladi.

Til o'rganish dengizda suzish bilan teng. Dengizdan o'tish uchun suzish kerak, to'xtab qolsangiz, cho'kasiz, harakatdan to'xtab qolmasangiz manzilga tezroq yetib borasiz. Avvalo, siz nimani va nima uchun o'rganayotganingizni aniqlab olishingiz kerak, shunda sizning o'sishingiz, rivojlanishingiz uchun til o'rganish mustahkam poydevorga aylanadi. Agar siz biror tilni mukammal o'rganmoqchi bo'lsangiz, avvalo o'sha til muhitida yashashingiz va o'rganayotgan til dengizingizga sho'ng'ishingiz kerak. Hozirgi kunda juda ko'p yoshlar tayyorlov kurslariga boradi, lekin hammasi ham bir xil natijaga erisha olmaydi. Ba'zida “3 oyda IELTS 7 /8 olibdi”, “2 yil o'qib ham IELTS yoki CEFR ololmabdi” degan gaplar qulog'imizga chalinib qoladi. Bu bolaning o'zlashtirish qobiliyati va o'rgatuvchining mahoratiga ham bog'liq. Agar ustoz bolaga o'sha muhitni yaratib berolmasa, bolaning qiziqishiga yo'naltirmasa yoki bola til o'rganishni xohlamasa hech qachon yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, chet tillarini o'rganuvchilarning asosiy qismi 17-35 yoshdagilarni tashkil etar ekan. “Nega, yoshi kattalar o'rganmaydimi” deyishingiz mumkin. Albatta o'rganadi, lekin juda oz miqdordagi kishilar o'rganishga o'zlarida kuch topa oladi. Ularda “xotiram pasaygan”, “Endi o'rgana olmayman” degan fikr yuqori hisoblanadi. Shu sababdan ularda chet tilini o'rganish ana shunday qo'rquv ostida bo'ladi. Lekin ayrim yoshi katta insonlar bor, ular chet tilini o'z ona tilidek biladi. Ular “Eplay olmasamchi” degan qo'rquvga tik qaray olgan va yengib o'tgan insonlardir.

Chet tillarini o'rganishni avvalo o'zingizni o'zgartirishdan boshlash eng to'g'ri yo'l. Chunki maqsadsiz, rejasiz harakat qilib bo'lmaydi. Quyida chet tillarini o'rganish uchun motivatsiya bo'la oladigan maslahatlar bilan tanishamiz:

- O'zgarishni eng ko'p foydalanadigan narsangizdan ya'ni telefoningizdan boshlashingiz mumkin. Undagi sizni chalg'ituvchi ilovalarni o'chirishingiz , telefoningizni o'zingiz o'rganayotgan tilingizga sozlashingiz kerak.

- Odamlarning gapiga e'tibor bermaslikka harakat qiling faqatgina ular sizning qiziqishlaringizni so'ndirishga yordam bera oladi xolos. Qolaversa, ularga faqat sizning



yutuqlaringiz kerak, ularga qiyinchilik va kamchiliklaringizni ko'rsatib qo'ymasligingiz kerak.

- Hech qachon "Chet tilini o'rganib kim ham bo'larding" degan odamlarga e'tibor bermaslikka harakat qilish kerak;

- Ko'proq o'rganayotgan tilingizni kinolar, musiqalar yoki yangiliklar bilan o'rganish samarali usullardan biridir. Ularni shunchaki o'qish, ko'rish yoki eshitish uchungina emas, balki til o'rganish uchun qilishingiz kerak;

- Kunda 5-10 ta so'z yodlashingiz kerak. "5-10 ta so'z bir kun uchun kamku" deyishingiz mumkin, lekin 100 ta so'z yodlab esda saqlay olmagandan ko'ra, 5ta so'zni mukammal o'rganish foydaliroq;

- Siz faqat o'zim o'rganishim kerak deb emas, kimgadir o'rgatishim kerak deb harakat qilishingiz kerak.

Motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchilar ko'proq izlanadi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi va bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi. Ishonchsiz va yangilikka intilmaydigan yoshlar ta'limda ham orqada qolib ketadi. Siz tanlagan yo'l mustahkam va qulamaydigan bo'lishi kerak, zero uni begonalar buza olmasin. Shu o'rinda Benjamin Franklinning ushbu gapi bilan fikrni yakunlamoqchiman:

"If you fail to plan, you are planning to fail" Agar reja tuzishda oqsaydigan bo'lsang, sen muvaffaqiyatsizlikni rejalashtirgan bo'lasan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review.
2. Maslow, A. H. (1954). Motivation and Personality.
3. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (1985). Self-Determination Theory.
4. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Intrinsic and Extrinsic Motivation
5. The_Psychology. First American Edition 2012
6. Umumiy psixologiya. A.K.Shamshetova. R.N.Melibayeva. X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. - T: wBarkamol fayz mediav, 2018. - 272
7. Umumiy psixologiya (E.G'oziyev). Toshkent, "Universitet" nashriyoti, 2002.